

**ZAMONAVIY TA’LIM MAZMUNINI 4K MODEL ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**Andijon davlat pedagogika institute
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at
fakulteti Tarix yo‘nalishi 2-bosqich
talabasi Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi**

Annotatsiya: ushbu maqolada 4K modelidan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish, 4K yondashuvining tamoyillari; kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, innovatsion yondashuv, hamkorlik pedagogikasi, maktab darsliklarining 4K yondashuvi asosida ishlab chiqilishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit s‘zlar: 4K modeli, zamonaviy yondashuv, XXI asr ko‘nikmalari, kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, xalqaro reyting, 4K ning o‘z ichiga olgan ko‘nikmalari: muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, komsepsiya.

Abstract: in this article, the organization of lesson processes using the 4K model, the principles of the 4K approach; collaboration, communicativeness, creative thinking, critical (critical) thinking, innovative approach, cooperative pedagogy, development of school textbooks based on the 4K approach are discussed.

Key words: 4K model, modern approach, 21st century skills, collaboration, communication, creative thinking, critical (critical) thinking, international rating, skills included in 4K: communication, research, creativity, formation of students' critical thinking, conception.

Аннотация: в данной статье организация уроковых процессов с использованием модели 4К, принципы подхода 4К; обсуждаются сотрудничество, коммуникативность, творческое мышление, критическое (критическое) мышление, инновационный подход, кооперативная педагогика, разработка школьных учебников на основе подхода 4К.

Ключевые слова: модель 4К, современный подход, навыки XXI века, сотрудничество, коммуникация, творческое мышление, критическое (критическое) мышление, международный рейтинг, навыки, входящие в 4К: общение, исследование, творчество, формирование критического мышления студентов, концептуализация.

Zamonaviy ta’lim darslarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bugungi kun yoshlari uchun juda ham zarur hisoblanadi. Ta’limni yuksaltirish uchun esa tizimga yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4K modelidir. Kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan 4K yondashuvi yod olishga yo‘naltirilgan content o‘rniga o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada birgalikda ishlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. “4K yondashuvi haqida Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrda 372-sonli “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish “ to‘g‘risidagi buyrug‘ida ham ta’kidlab o‘tilgan.” Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchilar yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olishni boshlashdi. Ushbu darsliklarning asosiy tamoyillaridan biri bu – ularning 4K modeli asosida ishlab chiqilganligidadir. O‘qituvchi bu tamoyilda ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanmaydi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asr yoshlari uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikmalarni ham organadi.

“4K” modeli ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, o‘z fikrini erkin bayon etishga, maktab o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi:

Kollaborasiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko‘nikmasi hisoblanadi. Topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlik asosida ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini to‘g‘ri qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik ishlash, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishni shakllantiradi. Kollaborativlik, ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, shu jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesotti universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. XX asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalarni oldindan aniqlash, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim muassasalarida bu g‘oyalar keng miqyosda qo‘llanila boshlagan. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida shakllantirish, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni yanada orttirish, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlik muhitini shakllantirish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoani rivojlantirish nazariyasi bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Bu nazariyaning mohiyati insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o‘rin tutishiga asoslanadi. Har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishadi. O‘quvchi turli vaziyatda o‘z fikrini erkin bayon eta oladi, axborotni qidiradi va olingan ma’lumotlarni ongli ongli ravishda tahlil qilishni o‘rganadi.

Kommunikativlik – bu jamiyatda muloqot qilish qobiliyati bo‘lib, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, ma’lumotlarni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir. **Kreativ fikrlash** – ya’ni ijodiy fikrlash insonni mashina va sun’iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini shakllantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. **Tanqidiy fikrlash** – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikr va g‘oyalarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning ana shunday muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishga inkon yaratishini hisobga olsak, maktabdagi har bir darsni o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan darajada emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur.

Dars jarayonida qo‘llanilayotgan turli xil metodlar, didaktik o‘yinlar va tarqatma materiallar ham 4K modeli asosida tashkil etilsa, darsning samaradorligi yana ham oshadi. Quyidagi metodlar orqali 4K ning qaysi yondashuvga asoslanganligini tahlil qilamiz:

“Yumaloqlangan qor” metodi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Ushbu metod mavzuni bir necha qismlarga bo‘lgan holda o‘zlashtirish imkonini beradi, hamda o‘quvchilarda guruh va juftlik tarzida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Metodni qo‘llash jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;
2. Uning orqa tomoniga mavzu mazmuniga oid bir necha variantdan iborat savollar yoziladi;
3. O‘quvchilar ikki yoki uch guruhga bo‘linadilar;
4. Har bir guruhdagi ishtirokchilar bir necha juftliklarga birlashtiriladi va har bir juftlik bir varianrdagi topshiriqni bajaradi, jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo‘lim yoki bob bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash jarayonida foydalanilsa kutilgan natijani beradi. Ushbu texnologiya kommunikativlik va kreativlikni rivojlantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayonlarida 4K modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilaydi har tomonlama bilim doirasini kengaytiradi, o‘quvchilarni yangi bilimlarni egallashga undaydi, mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun muhim bo‘lgan bilimlarni beradi, o‘quvchilarga o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Hamkorlik shunday jarayonki, unda o‘rtoqlik, o‘zaro yordam va jamoachilik yuzaga keladi. Natijada – jamiyat buyurtmasi bajariladi – raqobatbardosh, hamkorlikka doimo shay, turli hayotiy vaziyatlarda muammolarni aniqlab, ularni hal qilishga dadil kirishuvchi, o‘z fikr va qarashlarini mustaqil himoya qila oladigan yutuk shaxslarni tarbiya qilamiz. 4K modelidan unumli foydalanish orqali kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni tomonlama rivojlantirib, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishlariga har tomonlama yordam berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://lex.uz>.
2. YUNESCO. Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun ta’lim: o‘quv maqsadlari, 2017-yil.
3. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. 21-asr malakalari uchun ta’lim tizimini uyg‘unlashtirish: baholashga e’tibor qarating.- Brookings institute, 2018-yil.
4. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2008-yil.